ZAMONAVIY TA'LIMDA O'QISH KOMPETENSIYASINING NAZARIY ASOSLARI VA TA'LIMIY AHAMIYATI

Kurbanbayeva Dilnoza Sharofidinovna
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti
Toshkent, O'zbekiston
E-mail: dilnozakurbanbaeva7@gmail.com
Tel: +99897 7327441

ANNOTATSIYA:

O'qish kompetensiyasi zamonaviy ta'lim tizimida shaxsning akademik muvaffaqiyati, ilmiy-tadqiqot salohiyati va kasbiy rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. O'qish kompetensiyasi ko'p qirrali, dinamik va integrativ tushuncha bo'lib, u matnni tushunish, tahlil qilish, baholash va undan amaliy foydalanish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Ilmiy adabiyotlarda berilgan ta'riflar ushbu kompetensiyaning kognitiv, lingvistik va metakognitiv jihatlarini yoritib beradi. Uni chuqur nazariy va amaliy jihatdan o'rganish, tarkibiy qismlarini aniqlash va samarali rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish bugungi pedagogik tadqiqotlarning ustuvor vazifalaridan biridir. Mazkur ilmiy maqola aynan shu masalalarni yoritishga qaratilgan bo'lib, o'qish kompetensiyasining nazariy asoslari, tarkibiy tuzilishi va ta'lim jarayonidagi ahamiyatini chuqur tahlil qilishni maqsad qiladi.

Kalit so'zlar: o'qish kompetensiyasi, o'qib tushunush, mustaqil ta'lim, metakognitiv yondashuv, sotsial-konstruktiv yondashuv , kognitiv omil, lingvistik omil, affektiv omil.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'qish kompetensiyasi shaxsning intellektual rivoji, akademik muvaffaqiyati va kasbiy faoliyatda samaradorligini belgilovchi eng muhim kompetensiyalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Globallashuv, raqamli texnologiyalar rivoji va axborot oqimining keskin ortishi sharoitida shaxsdan nafaqat matnni mexanik tarzda o'qish, balki uni chuqur anglash, tahlil qilish, baholash va turli vaziyatlarda amaliy qo'llay olish talab etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, o'qish kompetensiyasi bugungi kunda faqat til o'rganish doirasidagi ko'nikma emas, balki shaxsning umumiy intellektual va metakognitiv rivojlanishini ta'minlovchi strategik qobiliyat sifatida qaralmoqda.

O'qish kompetensiyasi tushunchasi ta'lim psixologiyasi, pedagogika, lingvodidaktika va kognitiv fanlar kesishgan nuqtada shakllangan murakkab ko'p komponentli hodisadir. An'anaviy yondashuvlarda o'qish ko'proq texnik jarayon —

tovushlarni tanish, so‘zlarni dekodlash va matnni ovoz chiqarib o‘qish bilan bog‘langan bo‘lsa, zamonaviy ilmiy qarashlarda o‘qish jarayoni faol, maqsadga yo‘naltirilgan va strategik faoliyat sifatida talqin etiladi. Bunda o‘quvchi matn bilan o‘zaro muloqotga kirishadi, mavjud bilimlarini faollashtiradi, yangi axborotni qayta ishlaydi va uni shaxsiy tajribasi bilan uyg‘unlashtiradi.

O‘qish kompetensiyasining dolzarbligi ayniqsa oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot faoliyati jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi. Talabalar akademik matnlar — ilmiy maqolalar, monografiyalar, dissertatsiyalar, hisobotlar bilan ishlash jarayonida nafaqat matn mazmunini tushunishlari, balki muallif pozitsiyasini aniqlash, dalillarni baholash, nazariy qarashlarni taqqoslash va tanqidiy xulosalar chiqarishlari zarur bo‘ladi. Bu esa yuqori darajadagi o‘qish kompetensiyasini talab etadi. Shu sababli o‘qish kompetensiyasini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta’lim strategiyalarining markaziy muammolaridan biri sifatida qaralmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda o‘qish kompetensiyasi ko‘pincha o‘qish savodxonligi (reading literacy), o‘qib tushunish (reading comprehension) va fanlararo savodxonlik (disciplinary literacy) tushunchalari bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilinadi. Xalqaro baholash dasturlari, xususan, PISA tadqiqotlarida ham o‘qish savodxonligi shaxsning real hayotiy vaziyatlarda yozma matnlar bilan ishlash qobiliyati sifatida talqin etilib, uning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Bu esa o‘qish kompetensiyasining nafaqat akademik, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega ekanini ko‘rsatadi.

Shuningdek, o‘qish kompetensiyasi shaxsning mustaqil o‘rganish qobiliyati bilan bevosita bog‘liqdir. Mustaqil ta’lim jarayonida o‘quvchi o‘z bilimlarini kengaytirish uchun turli manbalardan foydalanadi, axborotni tanlaydi, tahlil qiladi va qayta ishlaydi. Bu jarayonda o‘qish kompetensiyasi yetarli darajada shakllanmagan bo‘lsa, o‘quvchi matn mazmunini yuzaki qabul qiladi, asosiy g‘oyani ajrata olmaydi va o‘qilgan materialni amaliyotga tatbiq etishda qiyinchiliklarga duch keladi. Shu bois, o‘qish kompetensiyasini rivojlantirish butun umr davomida o‘qish (lifelong learning) konsepsiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda o‘qish kompetensiyasi kognitiv, lingvistik va affektiv omillarning o‘zaro uyg‘unligi sifatida qaraladi. Kognitiv omillar — tafakkur, xotira, e’tibor va metakognitiv strategiyalar bilan bog‘liq bo‘lsa, lingvistik omillar til birliklarini bilish, lug‘at boyligi va grammatik kompetensiyani o‘z ichiga oladi. Affektiv omillar esa o‘quvchining motivatsiyasi, qiziqishi va o‘qishga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi. Ushbu omillarning har biri o‘qish jarayonining samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ta'kidlash joizki, o'qish kompetensiyasi o'z-o'zidan shakllanadigan ko'nikma emas, balki maqsadli pedagogik faoliyat, samarali metod va strategiyalar orqali rivojlantiriladigan murakkab jarayondir. Ayniqsa, metakognitiv yondashuv asosida o'qishni o'rgatish, ya'ni o'quvchilarga o'z o'qish jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish va baholashni o'rgatish bugungi kunda eng samarali yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu yondashuv o'quvchini passiv axborot qabul qiluvchidan faol bilim yaratuvchiga aylantiradi.

O'qish kompetensiyasini aniq va yagona ta'rif bilan ifodalash murakkab masala hisoblanadi, chunki bu tushuncha turli ilmiy yo'nalishlar — pedagogika, psixologiya, lingvistika va kognitiv fanlar doirasida turlicha talqin qilinadi. Shunga qaramay, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda o'qish kompetensiyasi faqat matnni texnik jihatdan o'qish qobiliyati sifatida emas, balki murakkab kognitiv va metakognitiv jarayonlar majmui sifatida qaraladi. Bu jarayonlar o'quvchining bilimlari, tajribasi, tafakkuri va ijtimoiy-madaniy konteksti bilan uzviy bog'liqdir.

Ilmiy adabiyotlarda keng qo'llaniladigan ta'riflardan biri Catherine E. Snow tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u o'qish kompetensiyasini "o'qilgan matndan ma'no hosil qilish va uni muayyan maqsadlar uchun qo'llash qobiliyati" sifatida izohlaydi (Snow, 2002). Ushbu ta'rif o'qish jarayonining funksional va maqsadga yo'naltirilgan xususiyatini ochib beradi. Ya'ni, o'qish faqat axborotni qabul qilish emas, balki uni tushunish, baholash va real vaziyatlarda foydalanishni ham o'z ichiga oladi. Snow yondashuvida o'qish kompetensiyasi o'quvchining bilimlarni faol ravishda qayta ishlash jarayoni sifatida talqin qilinadi.

Shunga o'xshash tarzda, Nell K. Duke va P. David Pearson (2002) o'qish kompetensiyasini matnni tushunish, sharhlash va undan foydalanish jarayoni sifatida tavsiflaydilar. Ularning fikricha, samarali o'qish jarayoni o'quvchining matn bilan faol muloqotga kirishishini, muallif g'oyasini anglashini va matndan olingan axborotni yangi bilimlar bilan integratsiya qilishini talab etadi. Ushbu yondashuv o'qish kompetensiyasini dinamik va interaktiv jarayon sifatida tushunishga imkon beradi.

Zamonaviy ilmiy qarashlarda o'qish kompetensiyasi ko'pincha "reading comprehension" tushunchasi bilan sinonim sifatida qo'llanadi. Biroq ayrim tadqiqotchilar bu ikki tushuncha o'rtasida muayyan farqlar mavjudligini ta'kidlaydilar. O'qib tushunish (reading comprehension) asosan matn mazmunini anglashga qaratilgan bo'lsa, o'qish kompetensiyasi bundan kengroq tushuncha bo'lib, u tanqidiy tahlil, xulosa chiqarish, baholash va matndan amaliy foydalanish kabi yuqori darajadagi ko'nikmalarni ham qamrab oladi. Shu sababli, o'qish kompetensiyasi ko'proq integrativ va funksional xarakterga ega tushuncha sifatida talqin qilinadi.

O‘qish kompetensiyasini tushuntirishda muhim nazariy yondashuvlardan biri Timothy Shanahan va Cynthia Shanahan (2008) tomonidan ishlab chiqilgan uch bosqichli model hisoblanadi. Ushbu model o‘qish kompetensiyasini quyidagi darajalarga ajratadi:

1. asosiy o‘qish ko‘nikmalari (decoding),
2. chuqur tushunish (general reading comprehension),
3. fanlarga xos intellektual o‘qish (disciplinary literacy).

Modelning birinchi bosqichi — dekoding — so‘zlarni tanish, tovush-harf munosabatlarini anglash va matnni texnik jihatdan o‘qish bilan bog‘liq. Bu bosqich o‘qish kompetensiyasining poydevorini tashkil etadi. Ikkinchi bosqichda o‘quvchi matn mazmunini tushunish, asosiy g‘oyalarni aniqlash va xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Uchinchi bosqich esa o‘qish kompetensiyasining eng yuqori darajasi bo‘lib, bunda o‘quvchi turli fanlarga xos matnlarni tahlil qilish, terminologiyani anglash va ilmiy fikrlash usullaridan foydalanishni o‘rganadi. Ushbu model o‘qish kompetensiyasining bosqichma-bosqich rivojlanishini aniq ko‘rsatib beradi.

Shanahanlar modeli o‘qish kompetensiyasining faqat boshlang‘ich ta’lim bilan cheklanmasligini, balki o‘rta va oliy ta’lim bosqichlarida ham chuqurlashib borishini asoslaydi. Ayniqsa, oliy ta’limda fanlarga xos o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish talabalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ilmiy matnlar murakkab sintaktik tuzilishga, abstrakt tushunchalarga va maxsus terminologiyaga ega bo‘lib, ularni tushunish yuqori darajadagi o‘qish kompetensiyasini talab etadi.

Ilmiy adabiyotlarda o‘qish kompetensiyasining sotsial-konstruktiv yondashuv asosida talqin qilinishi ham keng tarqalgan. Ushbu yondashuvga ko‘ra, o‘qish jarayoni individual kognitiv faoliyat bo‘lish bilan birga, ijtimoiy va madaniy kontekst bilan ham bog‘liqdir. O‘quvchi matnni o‘qish jarayonida o‘z madaniy tajribasi, qadriyatlari va oldingi bilimlariga tayanadi. Natijada, bir xil matn turli o‘quvchilar tomonidan turlicha talqin qilinishi mumkin. Bu holat o‘qish kompetensiyasining subyektiv va kontekstual xarakterini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, o‘qish kompetensiyasi metakognitiv komponentlar bilan chambarchas bog‘liq. Metakognitiv yondashuv doirasida o‘qish kompetensiyasi o‘quvchining o‘z o‘qish jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. O‘quvchi o‘qishdan oldin maqsad qo‘yadi, o‘qish jarayonida tushunishni tekshiradi va o‘qishdan so‘ng natijalarni baholaydi. Ushbu strategiyalar o‘qish kompetensiyasining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Ta’lim jarayonida o‘qish kompetensiyasi fanlararo xarakterga ega bo‘lib, u barcha fanlarni o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan universal ko‘nikma sifatida xizmat qiladi.

Matematikadan tortib tabiiy fanlar, ijtimoiy-gumanitar fanlar va professional yo‘nalishlardagi fanlargacha bo‘lgan barcha sohalarda o‘quvchilar matnlar bilan ishlashga majbur bo‘ladilar. Agar o‘quvchining o‘qish kompetensiyasi yetarli darajada rivojlanmagan bo‘lsa, u hatto mazmunan oson fanlarni ham o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch keladi. Shu sababli o‘qish kompetensiyasi ko‘pincha “ta’limdagi muvaffaqiyat kaliti” sifatida e’tirof etiladi.

Ilmiy tadqiqotlarda o‘qish kompetensiyasi va akademik muvaffaqiyat o‘rtasidagi bog‘liqlik keng miqyosda o‘rganilgan. Danielle S. McNamara va uning hamkorlari (2017) ta’kidlaganidek, yuqori darajada rivojlangan o‘qish kompetensiyasiga ega bo‘lgan o‘quvchilar murakkab akademik matnlarni tezroq va chuqurroq tushunadilar, natijada ularning o‘quv natijalari barqaror va yuqori bo‘ladi. Bu holat ayniqsa oliy ta’limda yaqqol namoyon bo‘ladi, chunki talabalar mustaqil ravishda katta hajmdagi ilmiy adabiyotlar bilan ishlashlari talab etiladi.

O‘qish kompetensiyasi ta’lim jarayonida bilimlarni yuzaki emas, balki chuqur va mazmunli o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Yuqori darajadagi o‘qish kompetensiyasiga ega o‘quvchilar matndagi asosiy g‘oyalarni aniqlash, dalillarni tahlil qilish va muallif pozitsiyasini baholash qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Tanqidiy fikrlash esa zamonaviy ta’limning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lib, mustaqil va mas’uliyatli shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta’lim jarayonida o‘qish kompetensiyasining muhim jihatlaridan biri — uning o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish qobiliyatiga ta’siridir. Mustaqil ta’lim jarayonida o‘quvchi o‘z o‘rganish faoliyatini rejalashtiradi, manbalarni tanlaydi, axborotni tahlil qiladi va xulosalar chiqaradi. Bu jarayonda o‘qish kompetensiyasi yetakchi rol o‘ynaydi. Chunki mustaqil ta’lim asosan yozma matnlar bilan ishlashga asoslanadi. O‘qish kompetensiyasi rivojlangan shaxs o‘z bilimlarini doimiy ravishda yangilab borishga qodir bo‘ladi.

O‘qish kompetensiyasining ta’limdagi o‘rni o‘quvchilarning motivatsiyasi bilan ham chambarchas bog‘liq. John T. Guthrie va Allan Wigfield (2000) o‘z tadqiqotlarida o‘qish motivatsiyasi va o‘qish kompetensiyasi o‘rtasida kuchli o‘zaro ta’sir mavjudligini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, o‘qishga nisbatan ijobiy munosabat va ichki motivatsiya o‘quvchilarning o‘qish kompetensiyasini rivojlantiradi, o‘qish kompetensiyasining oshishi esa o‘qishga bo‘lgan qiziqishni yanada kuchaytiradi. Ushbu ikki omil bir-birini doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlab boradi.

Motivatsiyaga asoslangan o‘qitish yondashuvlari ta’lim jarayonida o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarga qiziqarli,

hayotiy va ularning ehtiyojlariga mos matnlarni taqdim etish, o‘qish jarayonini interaktiv va maqsadga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etish o‘qish kompetensiyasining samarali shakllanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, tanqidiy savollar, muammoli vaziyatlar va munozarali matnlar bilan ishlash o‘quvchilarning faol o‘qish strategiyalarini rivojlantiradi.

Zamonaviy ta’lim sharoitida raqamli texnologiyalar rivoji o‘qish kompetensiyasining yangi jihatlarini yuzaga chiqarmoqda. Raqamli muhitda o‘qish (digital reading) an’anaviy bosma matnlarni o‘qishdan farqli ravishda, giperhavolalar, multimodal elementlar va katta hajmdagi axborot oqimi bilan ishlashni talab etadi. Bu esa o‘quvchilardan yuqori darajadagi tanqidiy o‘qish va axborotni tanlab olish ko‘nikmalarini talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, o‘qish kompetensiyasi raqamli savodxonlik bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, zamonaviy ta’limda strategik ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta’lim tizimida o‘qish kompetensiyasining ahamiyati ayniqsa kuchli seziladi. Talabalar ilmiy matnlar, tadqiqot maqolalari va akademik adabiyotlar bilan ishlash jarayonida murakkab nazariy tushunchalarni anglashlari, dalillarni tahlil qilishlari va ilmiy xulosalar chiqarishlari talab etiladi. Bu esa fanlarga xos o‘qish kompetensiyasini, ya’ni intellektual va tanqidiy o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishni taqozo etadi. O‘qish kompetensiyasi yetarli darajada shakllanmagan talabalar esa ilmiy faoliyatda qiyinchiliklarga duch keladilar.

Xulosa qilib aytganda, o‘qish kompetensiyasi ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning akademik muvaffaqiyati, mustaqil ta’lim olish qobiliyati, tanqidiy fikrlashi va kasbiy rivojlanishini ta’minlaydi. Uni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar va metodlar zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismi bo‘lishi lozim. O‘qish kompetensiyasining ta’limdagi o‘rnini chuqur anglash esa samarali o‘qitish strategiyalarini ishlab chiqish uchun muhim nazariy asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Duke, N. K., & Pearson, P. D. (2002). O‘qishni tushunishni rivojlantirish bo‘yicha samarali amaliyotlar. A. E. Farstrup & S. J. Samuels (tahr.), *O‘qishni o‘rgatish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar* (205–242-betlar). Newark, DE: International Reading Association.
2. Guthrie, J. T., & Wigfield, A. (2000). O‘qishda ishtirok va motivatsiya. M. L. Kamil va boshq. (tahr.), *O‘qish bo‘yicha tadqiqotlar qo‘llanmasi* (3-jild, 403–422-betlar). Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum.

3. McNamara, D. S., Graesser, A. C., McCarthy, P. M., & Cai, Z. (2017). *Coh-Metrix yordamida matn va diskursni avtomatlashtirilgan baholash* (Automated Evaluation of Text and Discourse with Coh-Metrix). Kembrij: Cambridge University Press.
4. Shanahan, T., & Shanahan, C. (2008). O‘smirlarga fanlarga xos savodxonlikni o‘rgatish: fanlararo o‘qishni qayta ko‘rib chiqish. *Harvard Educational Review*, 78(1), 40–59.
5. Snow, C. E. (2002). *O‘qishni tushunish: o‘qishni anglash bo‘yicha ilmiy-tadqiqot dasturiga yo‘naltirish* (Reading for Understanding: Toward an R&D Program in Reading Comprehension). Santa-Monika, Kaliforniya: RAND Corporation.
6. Norqobilov Sanjar Rahmat o'g'li, & Shomuratova Fotima Abdivaitovna. (2024). STUDY OF LEXICAL-GRAMMATICAL TRANSFORMATIONS IN ARTISTIC TRANSLATION BASED ON JOHN GREEN'S NOVEL "THE GIRL IN OUR STARS". *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, *4*(01), 48–55. https://doi.org/10.55640/eijmrms-04-01-10